

MAMLAKATIMIZDA MAQOM VA MILLIY OHANGLARNING AHAMIYATI VA ROLI

Qodirova Sabina Uchqun qizi

Navoiy Shahar 11-AFCHO'IM o'qituvchisi

Qadim afsonalarda aytilishicha, olam bunyod bo'lishidan avval so'z yaralgan. Odam bunyod bo'lganda esa uning taniga kuy orqali jon kirgan ekan. Shundan buyon insonlar o'zlarining his-tuyg'u va kechinmalarini mana shu kuy va qo'shiqlarda aks ettirib kelmoqda.

Ma'lumki, 1920-yildan boshlab o'zbek musiqa merosini o'rganish va yozib olish alohida o'rin egalladi. Mumtoz musiqa san'ati ming yillik tarixga ega. Ayniqsa, o'zbek maqomi so'zlaridagi boy ma'no barcha zamonlarda e'tirof etilgan. Maqom yetuk va oziga xos og'zaki, professional musiqa turkum janridir. Maqom-xalqimiz vujudidan sizib chiqqan ohang. Maqom va mumtoz kuylarning nechog'lik ta'sirli va inson hayoti uchun ahamiyatli ekanligini bu kuy, navolarni tinglagan insonlarga his etadi. Maqom qalblarga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligini o'zbek tilini umuman tushunmay turib, bu ohanglardan sehiranib tinglayotgan xorijlik zamondoshlarimiz misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Maqom juda yirik turkum. U boshqa musiqa asarlaridan mukammalligi, kuy va shakl tizimlariga egaligi bilan ajralib turadi. Maqom ijrochilari mumtoz adabiyotdan ham xabardor bo'lishlari zarur. Zero, maqomlar asosan, mumtoz nazm durdonalari asosiga qurilgan bo'ladi. Ijrochi maqom ashulasi ustida ishlayotganda bir so'zning ma'nosiga tushunmadimi, demak, u shu asarni maromiga yetkazib ijro qila olmaydi. Boisi shuki, maqom yoki mumtoz qo'shiq ijro qilinganda ijrochining mahoratida yurakdan his qilib kuylash, kuy, so'z qalbdagi tuyg'ular bilan uyg'unlashsa, tinglovchining ham yuragiga yetib boradi.

Biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, dard-u armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda.

Maqom san'ati avloddan avlodga "ustoz-shogird" an'anasi orqali meros bo'lib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir. Maqom-bu mukammal pardalar uyushmasi va doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg'u kuy va ashulalar majmuasidir.

Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilganligi bizning faxrimizdir.

Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan oltita turkum tarzida ifoda etilgan. Shashmaqom ikkita, ya'ni cholg'u va ashula yo'lida ijro qilingan asarlardan tashkil topgan. Cholg'u yo'li mushkulot, ashula yo'li esa nasr deb yuritiladi. Shashmaqomning Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlarining har biri katta hajmdagi asar bo'lib, ular orasida, taxminan, 20 tadan 44 tagacha katta va kichik maqom yo'llari bor. Hozirda nashr etilgan kitoblardagi maqomlarning 208 ta cholg'u va 250 tagacha ashula qismlari mavjud.

Shu narsa ayonki, maqom ijodiyoti musiqa merosimizning eng salobatli va sermahsul qismini tashkil etadi. 20-asr boshlaridan o'zbek bastakorlari maqom uslublaridan samarali foydalanib, milliy ohanglarni zamonaviy musiqiy janrlarda namoyon etishgan. Hoji Abdulaziz, Sodirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov kabi ijodkorlarning kuy va ashulalari, shuningdek, V. Uspenskiyning "Farhod va Shirin", M. Ashrafiyning "Dilorom" operasi kabi asarlari maqom asosida yaratilgan.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Shashmaqom nota matnlarining yozib olinishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishdagi kafedra faoliyati ham sohaga oid izlanishlar mahsulidir. Ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanmog'imiz kerak. Bu borada Prezidentimizning tashabbuslari tahsinga loyiq. Milliy maqom san'atini rivojlantirish to'g'risidagi qarorlari ayni muddao bo'ldi. 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari esa san'atimiz tarixidagi unutilmas voqea bo'ldi. Mazkur hujjat o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'alarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi" ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbida, avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragida chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatimizni safarbar etishimiz zarur.

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat tomonidan ijro etilmasin, ezgu, yuksak va nozik inson kechinmalarini ifoda etadi. Shashmaqom va mumtoz kuy-qo'shiqlar ustozdan shogirdga va nihoyat bus-butun holicha bizgacha yetib keldi. Bu merosni avaylab asramog'imiz va bizdan keyingi avlodga o'z holicha yetkazmog'imiz kerak. Buning uchun avvalo, o'zimiz bu oltin san'atning tub mazmunini anglab, undagi sehrli jilolar-u, qalblarni titratguvchi pardalarni aynan asl holicha tushunmog'imiz va ijro etmog'imiz kerak.

Ularda inson kechinmalarining eng nozik ohanglari jamlangan. Maqomni tushunish uchun kishi yoshlikdan musiqaga mehr qo'yishi va ruhiy kamolotini ayni shu jihat bilan bog'lamoq i kerak.

